

HUQUQBUZARLIKLAR VA INTIZOM BUZILISHI PROFILAKTIKASI

Ergasheva Dilrabo Axmatovna*Romitan tumani 9- maktab amaliyotchi psixolog*

Annotatsiya: Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi, uning nima ekanligi, huquqiy asosi, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari, uni amalga oshiruvchi hamkorlikdagi ishlar, bu sohadagi islohotlar va sohani rivojlantirishga oid takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy asos, profilaktika turlari, hamkorlik, islohotlar, profilaktik davra suhbat, takliflar.

Har bir davlat bor ekanki, o‘z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Xuddi shuningdek davlat organlari ham bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi. Qo‘riqlash bo‘linmalarida sodir etilgan huquqbuzarlikka qarshi kurashishda: avvalo xodim ekanligini inobatga olish lozim, xizmat tekshiruvi tayinlanadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun vaqt shu bilan birga ruhiy zo‘riqlash ish unumdorligini pasayishiga olib keladi. Shu sabab huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan avval uni oldini olgan ma‘qul. Bunday holatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi.

Xo‘sh huquqbuzarliklar profilaktikasi o‘zi nima degani?

Bunda profilaktika so‘ziga e‘tibor berish lozim. Profilaktika so‘zi lotincha so‘z bo‘lib ma‘nosi “oldini oluvchi”, “saqlovchi” degan ma‘nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda huquqbuzarliklarni oldini olish tushuniladi. Yanada aniq huquqiy javob “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida keltirib o‘tilgan: “Huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq- tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi”.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asosi haqida.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng huquqbuzarliklar sohasini amalga oshirishga oid, yanada takomillashtirishga oid juda ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilingan. Ammo, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun bu sohada haqiqiy tub burilish bo‘lib xizmat qildi. Chunki shu sanaga qadar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini tartibga soluvchi yagona rahbar

qonun hujjati yo‘q edi. Bu qonunda ilk bora huquqbuzarliklar profilaktikasi nima ekanligi, uning prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan. **Huquqbuzarliklar profilaktikasi**-huquq-tartibotni saqlash mustahkamlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo‘yicha qo‘llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy va yakka tartibdagi profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tizimi sanaladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining qanday turlari mavjud?

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi turlari ko‘rsatib o‘tilgan:

- huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi;
- huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi hamkorlikdagi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish bo‘yicha faoliyati huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi hisoblanadi. Bunda kam vaqt va ishchi kuchini jalb etgan holda ko‘proq natijaga erishish ko‘zda tutiladi. Masalan, televideniya, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoki davra suhbatlari va hokazolar orqali profilaktik ogahlantiruvlar e‘lon qilish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamkorlikdagi ishlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasidir. Ayrim toifadagi yoki mavsumiy huquqbuzarliklarga qarshi aynan maxsus profilaktika qo‘llaniladi. Masalan, giyohvand moddalarga qarshi “Qoradori” maxsus profilaktik tadbiri, ayniqsa yosh xodimlarga qaratilgan profilaktik tadbirlar va hokazo.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamkorlikdagi organlar va muassasalarning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasidir. Huquqbuzarliklar profilaktikasining bu turi shaxslar bilan individual tarzda ishlashni nazarda tutadi. Bunda shaxsning xulq-atvori, psixikasi va boshqa jihatlari hisobga olingan holda quyidagi chora-tadbirlar qo‘llanilishi mumkin: profilaktik suhbat, rasmiy ogohlantirish, majburiy davolanishga yuborish va hokazo.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini ushbu organlar hamkorlikda amalga oshira oladi va samarali natijalarni beradi.

- ichki ishlar organlari;
- prokuratura organlari;
- Davlat xavfsizlik xizmati organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- adliya organlari;
- davlat bojxona xizmati organlari;
- davlat soliq xizmati organlari;
- mehnat organlari;
- ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;
- davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan davlat organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi vazifalari bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo barchasining zahirida bir maqsad ya'ni huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadi mujassam. Fikrimizcha, huquqbuzarliklarni oldini olishda bir-birlarini qo'llab quvvatlasalar ko'zlangan maqsadga erishishda barcha organlar birdek ma'suldirlar. Jumladan hamkorlikdagi profilaktik tadbirlarni mazmunli va televidaniya va radio ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish kerak.

So'nggi yillarda bu tizimga qaratilayotgan e'tibor juda ham katta hisoblanib, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, yildan-yilga huquqbuzarliklar soni ortib borayotgan edi. Bu holatda prezidentimiz tomonlaridan 2021-yil 222-aprel kunidagi 5089-son, qarorlarida konsepsiya ishlab chiqilib yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Malakali va fidoiy kadrlar zarurligi va ularni malakasini oshirish maqsad v qilib olindi. shu maqsadda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini yanada rivojlantirish yo'llari.

Bu haqida Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvar kunida imzolangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" muhim ahamiyatga ega boldi. Jamoat xavfsizligi va ma'naviy-marifiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qoyildi.

Birinch navbatda xodimning huquqiy ongini oshirishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish. Xodimda huquqiy ong qanchalik kuchli bo'lsa, huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi ham o'z-o'zidan kamayadi.

Ikkinchidan, tizimgaga faqatgina yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan nomzodlarni qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish va ularning muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uchinchidan, tarbiya usullarini to'g'ri qo'llay olishi amaliyotida natiga erishishi mumkin bo'lgan individual suhbat oilaviy ko'riklarni tashkillashtirish choralari maqsadga muvofiq bolardi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimda qaratilayotgan e'tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko'satkichlar bundanda ijobiyroq ko'rinishga keladi. Shu sabab bu tizimda e'tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Huquqbuzarlik va intizom buzilishi bu bo'linmalardagi ma'naviy-marifiy va jangovor tayyorgarlikni yuqorilashiga to'sqinlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-aprel kunidagi PF-5089-son qarori
2. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun
3. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarori // 2019
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-aprel kunidagi "Tarqqiyot strategiyasi"
5. (2022). THE ROLE OF COMMUNICATION CULTURE IN THE FIELD OF CRIME PREVENTION AND PUBLIC SAFETY. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(02), 31-37.
6. www.vikpediya.uz profilaktika
7. Арипова, А. Х. (2021). Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. Scientificprogress, 1(6).